

## ALISHER NAVOIYNING "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDAGI RADIFLAR

**Isoqjonova Mahliyo Shuhratjon qizi**

*Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti*

*O'zbek adabiyoti yo'naliishi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida qo'llangan radiflar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Maqola davomida radifning turlariga misollar keltirilgan va xususiyatlari ochib berilgan. Navoiyning radif qo'llash mahoratiga alohida urg'u berilganligini ko'rishimiz mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *radif, doston, qisqa radif, yoyiq radif, qofiya, nazm, nasr.*

Alisher Navoiy "Xamsa" sining birinchi dostoni bu "Hayrat ul-abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) hisoblanadi. Bu doston "Xamsa" yozish ana'siga muvofiq pand-nasihat ruhida yozilgan. 3988 baytdan iborat bo`lib, 64 bob, 20 maqolatdan iborat. Asar Allohg'a hamd va payg` ambarga na't bilan boshlanadi. Ushbu dostonda shoir radifning go`zal na'munalaridan foydalangan. Asarning eng avvalgi maqolati iymon sharhiga bag`ishlanadi. Bu bejiz emas zero, dostonning bosh g`oyasi komil inson timsolini vasf etishdir, komillikning bosh belgisi esa iymondir. Ushbu keltirilgan baytda qisqa radif qo'llangan bo`lib, erur radif sifatida qo`llangan va o`ziga xos ohang hosil qilgan.

Kimki jahon ahlida inson erur

Bilki,nishoni anga iymon erur.

"Hayrat ul-abror" ning ikkinchi maqolati so`zning nozik ma`nolarini izohlagan. So`zni naqadar nozik xilqat ekanligini quyidagi baytda ko'rishimiz mumkin:

Aytsa bu husnni malohat bila

Nuktani oyini fasohat bila.

Bu misrada so`zni husni malohat bilan ta`riflanadi, So`zni ravshanlk bilan so`zlanadi. Yuqoridagi baytda bila so`zi radif sifatida qo`llangan. Bu radif qisqa radif hisoblanadi. Bila so`zi hozirgi paytda bilan so`zi sifatida qo`llanadi. Bu baytda so`zni so`zlamoq uchun insonda ,avvalo, so`zlash odobi va so`zlash uchun bir aqli rasolik kerakligini aytildi.

O`rnida tishlar duri manzur erur

Chun sochilur qiymati ma`lum erur.

Tish injulari og`izda terilib tursa, nazmday ko`rkam bo`ladi, og`izdan tushib nasrdan sochilsa, qiymati ketadi. O`z davri an`anasiga ko`ra bu yerda Navoiy nasrga nisbatan nazm yuqori baho beradi. Yuqoridagi baytda erur so`zi radif sifatida qo`llangan bo`lib, radifning qisqa turiga kiradi. Erur so`zi orqali shoir o`zining nazm va nasr haqidagi fikrlarini ochib beradi. Asrning uchinchi bobu "Salotin bobida" deb nomlanadi. Bu maqolatda Sulton Husayn Boyqaroning saltanat tepasiga kelishi, davlatning atosi deb ta`riflanadi. Bunda kelub so`zini radif sifatida qo`llab, bu so`z orqali sultonning davlat tepasiga kelganligi izohlanadi.

Qasri yetti gunbazi gardon kelib

Yetti atosiga degin xon kelib.

Husayn Boyqaro taxt tepasiga kelishi bilan mamlakat gullab yashnaganligini biz tarix kitoblatini o`qish orqali ham bilishimiz mumkin. Navoiy ham xuddi shuni ko`rsatish

maqsadida alohida bir bobni Husayn Boyqaro uchun bag`ishlaydi. Bu baytda kelib so`zi radif sifatida qo`llangan, radifning qisqa turiga kiradi. Mamlakat tepasigaadolatli hukmdor kelsagina yurt obod bo`lishi, xalq farovon yashashi mumkin bo`ladi. Navoiy Husayn Boyqaroni ana shunday adolatli podshoh sifatida ta`riflaydi. Asrning yigirma birinchi bobi Xoja Bahouddin Naqshbandning buyuk tasavvufiy asoschsi ekanligini, diniy ulamo ekanligini ta`kidlaydi.

Ayladi avroq munaqqash base

Naqsh raqam ayladi dilkash base

Bu baytda base so`zi radif sifatida olingan bo`lib, qisqa radif hisoblanadi. Mazkur ikki baytda Bahouddin Naqshband ulug` martabali naqqoshga uning diniy ta`limoti mustahkam va dilkash naqshga qiyoslaydi. Bu baytda naqsh so`zi bosh so`z sifatida keltiriladi. Asarning yigirma ikkinchi bobi iymon sharhida deb beriladi va quyidagi baytda sharhlanadi. Sharhlashda “sharh” so`zini radif sifatida qo`llangan va bu radif qisqa radif hisoblanadi.

Eyki, sanga ayladim insonni sharh

Emdi eshitkim qilay imonni sharh.

Ushbu keltirilgan baytda insonni sharh qildim, endi imonni sharh qilishni ta`kidlaydi. Iymon insonni nobud qilg`uchi ham, barchani bo`lg`uchisi ham o`ziya`ni iymonni keltiradi. O`zi so`zini esa radif sifatida keltirib, u orqali iymonga ishora qiladi.

Borchani ham, qilg`uchi nobud o`zi

Borcha borib, bo`lg`uchi mavjud o`zi

Asarning yigirma sakkizinch bobি Shoh G`oziy va bir kampir bilan bo`lgan suhbatini aks ettiradi. Bunda kampir o`g`lini urushdz halok bo`lgani va uni xunini so`rab kelgani bayon qilinadi. Navoiy Shoh G`oziy va kampir o`rtasidagi suhbatini shu qadar noziklik bilan yoritadiki, buni kampirning quyidagi so`zlar orqali biliшимиз mumkin.

Gar yigitkim qildi fidob jon sanga

Men qari joni dog`i qurban sanga

Bu baytda sanga so`zi radif sifatida keltiradi va u qisqa radif hisoblanadi. Radif sifatida qo`llangan sanga so`zi orqali shoir “Shoh G`oziy” ga ishora qilgan. Bu baytda shoir o`z farzandidan ayrılgan onani adolatli qarori tufayli kampirning e`tirofiga sazovor bo`lganligini ko`rishimiz mumkin. Bu voqeadan so`ng Shoh G`oziy kampirga juda ko`p mablag`lar beradi va kampir xalq orasida “Zoli zar”(Tilla kampir) nomi bilan mashhur bo`ladi. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroni zolim podshohlarga qarama-qarshi qo`yib, ularni ana shunday odil hukmdorlardan ibrat olishga da`vat etadi. Asarning to`rtinchı maqolati jamiyatning quyi tabaqasi bo`lgan darveshlar haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqolatning uchdan ikki qismi riyokor shayxlar hajviga bag`ishlangan bo`lib, qolgan o`ttiz besh bayti chin so`fiylar ta`rifida keltirilgan. Navoiy bunday riyokor darveshlar haqida fikr yaratish ekan asasiy fikrini uchta narsaga qaratadi. Birinchisi, bunday diyonatsiz dindorlar ommani aldaydigan darajada tashqi ko`rinishlarini so`fiylar kabi namoyon qilishga moslashtirilgan, xirqalari darveshlarniki sinqari quroq parchalaridan tikilgan, qo`llarida esa hamisha zikr tushish uchun tasbeh olib yurganlar. Ikkinchidan, bu toifaning muridlari shayxlarga o`xshab hiyla, nayrang va riyoni san`at darajasida o`zlashtirishgan. Uchinchidan, bu nayrang va hiylalardan maqsad faqat bitta - boylarning nazariga tushish bo`lgan. Navoiy xulosasi bo`yicha, din va diyonat niqobi ostida riyokorlik qiladigan, odamlarni to`g`ri yo`ldan adashtiradigan bu toifa eng yomon

kimsalardir deya ta` riflaydi. Shu jihatni hisobga olgan holda buni nozik baytda ochib berish uchun “yomon” so`zini radif sifatida keltiriladi. Umuman olib qaraganda Navoiy dostonning oldingi qismlari foydalangan qisqa radifdan foydalangan.

Bu el erur barcha yomondin yomon

Kimki yo`q ondin yomon ondin yomon

Haqiqiy orif sifatida esa Navoiy oriflardan biri bo`lgan Xo`ja Ahmad Yassaviyni keltiradi. Uning ibodatini esa jannatni talab etib emas, Haq taolo buyrug`iga so`zsiz amal qilish deb bilish kerak deb ta` kidlaydi. Haq taologa itoat qilish bu nafsnin tiyilishidir deyiladi. Buni ifodalash uchun esa shoir quyidagi baytni keltiradi.

Biym ila Haqni parastish qilur

Nafs najotni tilab ish qilur

Bu baytda Navoiy “qilmoq” fe`lini radif sifatida qo`llaydi. “Qilmoq” so`zi esa qisqa radif hisoblanadi. Beshinchi maqolat karam va saxovat haqida eng yomon xislatlaridan biri baxillik bo`lsa, eng yaxshi xislatlaridan biri saxovat hisoblanadi. Ushbu maqolatda qanoat tushunchasi chiroylı tashbihlar va tamsillar vositasida ifodalab berilganini ko`rishimiz mumkin. Insonlar qanoat bobida osmon va ko`z singari bo`lishlari kerak. Quyidagi abytda durur so`zi radif sifatida keltirilgan. Bu baytda biz shoirning mahoratini ko`rishimiz mumkin.

Qushlar aro shohki, anqo durur,

Nuktai bu amrda paydo durur.

Durur so`zini radif sifatida qo`llagan va bu qisqa radif hisoblanadi. Oltinchi maqolat odob bobi hisoblanadi, kichiklarga saodatmandlik va kattalargs hurmatni, tavoze vasfida kimkiegilgan muhtojlarga yordam bersa rahmatlar yog` ilishi keltirilgan.

Tarhi adabni biri kulgu durur

Kulgu adab tarhiga belgu durur

Bu baytda ham durur so`zi radif sifatida keltirilgan. Bu radifning qisqa turi hisoblanadi. Shoir nozikliklardan yana biri shuki, har bir maqolatda oldingi maqolatlarda radif sifatida qo`llangan so`zlar keyingi maqolatlarda ham radif sifatida qo`llangan. Yuqorida qo`llangan durur beshinchi maqolatda ham radif sifatida keltirilgan. Baytda kulgu haqida so`z boradi. Odobning tarh etilganligining belgisi bu gulgudur deb ta` kidlanadi. Yettinchi maqolat qanoat tarifidagi bob hisoblanadi. Ushbu maqolatda “Qanoatli va qanoatsiz ikki do`st” haqidagi hikoyat ilova tarzida keltiriladi. Hikoyaning mazmuni esa qanoatli inson sabri tufayli shoh darajasiga erishadi, qanoatsiz inson tama ilinjida xor-zor bo`ladi.

Faqr berib maxzani Qorun anga

Faqr bo`lub mulki Faridun anga

Mumtoz adabiyotda Qorun va Faridun shaxslari qarama-qarshi qo`yiladi. Qorun shunchalik darajada shuhratparastlikka beriladiki, u o`zini xudoga tenglashtiradi, boyliklarga qanoat qilmaganligi sababli halok bo`ladi. Qorunni bu baytda qanoatsiz inson sifatida ta`riflanadi. Anga so`zi orqali unga ishora qiladi. Faridun esa qanoatli bo`lganligi sababli faqrlik shohlikka erishadi. Ikkinci baytdagi anga so`zi orqali Faridunga ishora qilingan. Bu misrada anga so`zi radif sifatida kelgan va radif turidan qisqa radif hisoblanadi. Sakkizinch maqolat va ta`rifida beriladi. Shoir bu axloqiy tushunchani do`stlik tushunchasiga bog`liq talqin qiladi. Ushbu maqolatda “Ikki vafoli yor” hikoyati keltiriladi.

Yorki, oyini vafo yo`q anga

Sham kibidurki, ziyo yo`q anga

Ushbu baytda anga so`zi radif sifatida keltirilgan bo`lib, qisqa radif hisoblanadi. Shoirning ta`kidlashicha vafo olamdag'i eng noyob gavhar, inson umrini bezaydi. Vafo, sadoqat – beg` araz tuyg` ular. Vafoli kishi – shandek yonib, o`zgalarga nur sochishi va buning evaziga hech narsa talab qilmasligilozimligi yuqoridagi baytda keltirilgan. To`qqizinchi maqolat ishq ta`rifida beriladi. Chunki vafo va ishq, sadoqat va muhabbat bir-birini to`ldiruvchi, bir-biriga aloqasi bo`lgan tushunchalar hisoblanadi. Navoiyning yozishicha, ishq azaliy hodisa u “ruh mayi” bilan jismga kirib ketadi va uni mast etadi. Ishq – ruh olamining go`zalligi, husn-u jamoli hadsiz, chegarasiz. Ishq bulbuli bu go`zallikni ko`rib, visoliga havas qilgan odam oshiqlik emas, oshiqliknii da`vo qilgan kishiga vafo va sadoqat tuyg` usi begonadir, uning tosh ko`ngliga ishq o`ti asar qilmaydi.

O`zligidin ishq ani pok etib

Balki fano o`tig`a xoshok etib.

Ushbu baytda etib so`zi radif sifatida qo`llangan, radifning qisqa turi hisoblanadi. Ushbu dostonda asosan navoiy radifning qisqa turidan ko`proq foydalanganimini yuqorida keltirilgan misollardan anglab yetishimiz mumkin. Yuqoridagi baytda oshiqlik o`zgalar hayolidan begona, ishq yo`lida katta o`zlikdan ham voz kechgan dardkash inson sifatida ta`riflanadi. Navoiy ushbu maqolatga ilova tarzida Shayx Faxriddin Iroqiy haqida rivoyatni keltirib ishqning tarbiyaviy ahamiyatini olib beradi. O`ninchisi maqolat to`g`rilik va egrilik inkor etib keluvchi hisoblanadi. Navoiy bunda rostlik, to`g`riso`zlik, to`g`ri yashash, odamlarga to`g`ri munosabatda to`lish kabi fazilatlarni navbat bilan sanab chiqqan va uning ziddi bilan solishtirilgan. Navoiy bu bobga ilova sifatida “She`r bilan durroj” hikoyasini keltiradi. Bu borada Navoiy inson bir marotaba yolg`on so`zlab insonlar ishonchini yo`qotsa, odamlar unga ishonmay qo`yishlarini rivoyat qiladi.

Kimki o`zin ayladi yolg`on so`zin

Kizb, der el, chin desa, qolq`on so`zin.

Bu baytda so`zin so`zini radif sifatida qo`llangan, qisqa radif hisoblanadi. Inson so`zini yolg`on aylasa, insonlar uning chin aytilgan so`zini ham yolg`on deb atashlarini yuqoridagi misolda ko`rishimiz mumkin. O`n birinchi maqolat ilm o`rganish, olimming jamiyatdagi o`rni, ilm talabi haqida so`z boradi. Navoiy ilm olish insondan fidoiylik talab qilishini, ilmni boylik orttirish uchun o`rganish esa johillik va gumrohlik ekanini ta`kidlaydi. Dunyoviy havaskor uyasi bo`lgan qalbda ilmg'a o`rin qolmasligini quyidagi baytda keltiriladi:

Ilmni kim vositai joh etar

O`zini-yu xalqini gumroh etar

Ushbu baytda “etar” fe`li radif sifatida qo`llangan bo`lib, qisqa radif turiga kiradi. Asarning o`n ikkinchi maqolati qalam va qlam ahli haqida so`z boradi. Dastlabki o`n sakkiz bayt qalam ta`rifiga bag`ishlangan bo`lib, olamning yaratilishi, uning rivoji va ishq bobida qalamning o`rni haqida so`z boradi. Keyingi baytlarda esa, qalam o`z kotibining ixtiyoriga qarab yaxshilik yoki yovuzlikka xizmat qiladi.

O`n uchinchi maqolat Navoiyning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari yanada yorqinroq ifodasini topgan. Dastlabki baytlari yaxshilik qiluvchi insonning xislatlari: mehribonlik, saxiylik, muloyimlik kabi xislatlari haqida so`z boradi. Shunday fazilatlarni

o`zida ko`rmagan inson g`iybatchi, fitnachi, pastkash, nokas odam hisoblanadi. Inson shunday fazilatlardan holi sifatida yaratilgan bo`lsa, shukr qilishi kerakligi ta`kidlanadi.

Shukr nedur? Naf fuzun aylamak

Baze hamandini uzun aylamk

Yaxshilik qilish odamlarga yordam berish fqat qo`l bilan emas, ochiq yuz va shirinso`zlik bilan ham amalga oshiriladi. Navoiyni fikricha eng yaxshi ehson bu – shrin so`z bilan qilingan ehsondir deydi. Bu baytda aylamak so`zi radif sifatida qo`llangan bo`lib, qisqa radif hisoblanadi. O`n to`rtinchchi maqolatda Navoiy olam, odam, davr, inson, ko`ngil istaklar, dunyoning asl mohiyati nimadan iborat ekanligihaqida so`z yuritadi. Shu o`rinda Navoiy falakni hiylagar ko`zbo`yamachiga, dunyoni esa makkor yalmog`izga qiyos etadi. Maqolatdagi g`oyalar shoh Iskandarning bu olamdan qo`li ochiq holda ketgani haqidagi hikoyat keltirladi.

Ham yeti ko`k hukmi tuyassar anga

Ham yeti iqlim musaxxar anga.

Yuqoridagi baytda Iskandar haqida so`z boradi, radif sifatida qo`llangan “anga” so`zi orqali unga ya`ni iskandarga ishora qilingan. Butun olamni o`z qo`l ostida birlashtirgan podshoh hamadolati bo`lmasa, mamlakatni boshqarib bo`lmasligini tushinishimiz mumkin. Radif esa radif turlaridan qisqa radif hisoblanadi. O`n behinchi maqolat mayparastlik va mayxo`rlik zararlari haqida fikr yuritiladi. Mayparastlik tufayli insonning hayvoniy kuchlari yanada oshadi, salomaligiga zarar yetkazadi, eng muhim u nasldan naslga ham ta`sir qiladi. Navoiy may ichgan kishini aqldan begona, ust-boshi bir ahvolda, bolalar va ko`cha itlaridan mazax eshitsada ta`sir qilmaydigan deya ta`riflaydi. Bumaqolatda ilova sifatida Navoiy Bani Isroil qavmidagi Maymana ismli rindning tavbasi haqidagi hikoyatni ilova qiladi.

Elga qilib hamla yamon it kibi

Qaysi yamon it, qopog`on it kibi

Mayparast inson may ta`sirida hech nimani his qilmaydigan xuddiki, it singari bo`lib qoladi, xalq orasida mast inson qopag`on it bolib qoladi degan fikr mayjud. Ya`ni kimni ko`rsa u bilan nojoya usulda tortishadi va alal oqibat bu janjalga aylanib ketishini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Kibi so`zini radif sifatida qo`llab mast insonni itga qiyoslanganligini ko`rishimiz mumkin va u so`z baytda qisqa radif bo`lib kelgan. O`n oltinchi maqolat o`z jismoniy quvvatiga aldanib o`zini yuqori qo`yadigan takkabur bahodir va beklar haqida hikoyat qilinadi. Navoiy talqinicha ijtimoiy odoblarni nazar-pisand qilmasdan, yanada haybatli ko`rinish uchun mo`yovlar qo`yib, qulog`iga ayollarga o`xshab sirg`a taqadigan bu odamlar mardlik lofini ursalar ham aslida maydagap, lofchi, ezma, nomard kishilardir. Manfaat uchun jang maydoniga kiradigan, qaysi hukmdor ko`proq pul va`da qilsa, o`sha tomonga o`tib oladigaan sotqinlar faoliyatining jihad va g`azotga hech qanday aloqasi yo`q. Maqolatga ilova qilingan hikoyatda buyuk muhaddis Abdulloh Muborakning niqob kiyib jang maydonida qilgan jonbozliklari, u kishining yuzlarini ko`rmoqchi bo`lganlarga bu ishni Allah uchun qilganliklari va ko`z-ko`z qilish maqsadida emasliklarini ta`kidlahanlari go`zal tasvirlar asosida bayon qilib berilgan.

To`n yuzi oltin bila jadval anga

Balki o`tuk taqasi zarhal anga.

Shuhratparast insonlar o`zlarini ko`z-ko`z qilish orqali o`zlarini obro` topmoqchi bo`lishadi. Ammo kiyim kechaklarini namoyish qilish bilan inson bahodir ham pahlavon ham bo`lmaydi. Anga so`zi orqali Navoiy o`sha soxta insonlarga ishora etadi. Bu anga so`zi radifning qisqa turi hisoblanadi. O`n yettinchi maqolat umrning ikki asosiy bosqichi hisoblanmish yoshlik va qarilik haqida so`zlanadi. Bu maqolatda ham Navoiy falsafiy mushohadakorlik bilan so`zni bog` tasviridan boshlab, ko`klam, yoz, xazon va qish fasllaridagi peyzajni katta mahorat bilan chizadi. Keyingi baytlarda esa inson umrini xuddi shu holatga qiyoslab, olamdagи barcha narsa kabi inson umri ham zavol topishi muqarrarligini shoirona tilda ifodalaydi. Shu sababli, deyarli har bir maqolatda qayta-qayta ta`kidlangan – umrni g`animat deb bilish hamda uni bekorga o`tkazmaslik g`oyasi ilgari suriladi. Ushbu maqolatga ilova sifatida Muhammad alayhisallomning evalari – Imam Zaynulobiddining hayotidan olingen ibratlil hikoya orqali targ`ib qilinadi.

Ohki, umr o`tti jaholat bila

Qoldim o`lum vaqtin xijolat bila

Umr bu o`tkinchi narsa uni besamar va bemaqsadlik bilan o`tkazmaslik kerakligini bilishimiz zarur. Bu baytda “bila” so`zi radif sifatida qo`llangan. Bu hozirgi bilan ko`makchisi hisoblanadi. Radif turlaridan esa qisqa radif hisoblanadi. O`n sakkizinchı maqolat umrni behuda o`tkazmaslik, har bir nafasni g`animat deb bilish, kelgan baloga sabr qilib, shukronalikda hayot kechirish haqida so`z boradi. Kimki dunyo ishini oson tutsa, unga mashaqqat va musibatlarni yengish shunchalik oson bo`ladi.

Ishga necha sa`bliq imkon erur

Kim ani oson tutar, oson erur

Ushbu baytda insonni hayotda qanday yashashi uning o`ziga bog`liqligi, hayotga qaysi ko`z bilan qarasa, hayot unga shunday boqishi haqida fikr yuritiladi. Ushbu baytda erur so`zi radif sifatida keltirilgan, qisqa radif hisoblanadi. O`n to`qqizinchı maqolatda Navoiy o`zi tug`ilib o`sgan Xuroson davlatining poytaxti bo`lgan Hirot shahri ta`rifiga bag`ishlaydi. Maqolatda Navoiy Vatan haqidagi tasavvurlari madhiyasini yozadi. Navoiy Hirot shahrini Xuroson davlatining yuragi hamda to`rtinchi falakda joylashgan Quyoshga qiyoslaydi. Hirot shahrining ta`rifida Navoiy eng chiroyli o`xshatishlar, eng yoqimli mubolag` alarni qo`llaydi. Ushbu maqolatda shoh Bahrom haqidagi hikoyat yana bir bor quvvatlantiriladi. Adolat hasiqda Bahromga berilgan saboq hikoyat etiladi.

Mash`ala yo`qkim, duri tobon degil

Dur demagil, mehri duraxshon degil

Bu baytda Navoiy Hirotni juda ohangdorlik bilan ta`riflaydi. Uni go`yoki mash`aladan yuqori qo`yib oy singari nur sochuvchi deya ta`riflaydi. U durdan ham a`loligini keltiradi. Degil so`zini esa radif sifatida qo`llaydi. Bu radifning qisqa turi hisoblanadi. “Hayrat ul-abror” ning oxirgi yigirmanchi maqolati valiahd shahzoda Badiuzzamonga bag`ishlangan. Ushbu maqolatda Navoiyning davlat bobidagi qarashlari mushohada etiladi. Ushbu maqoladagi Navoiyning qarashlari Amir Temurning o`z vorislariaga meros qilib qoldirgan o`n ikki tuzukka to`la mos tushadi. Navoiy har bir tuzukni sharhlab, mazmunini tushuntirib beradi. Bob so`ngida Navoiy g`oyat nazokat va kamtarlik bilan agar yozganlarini elga manzur bo`lmasa, uni afv etishlarini so`rab, Allohga iltijo qiladi:

Jilva ber el ko`ziga ham xo`b ani

Qilg`il ulus ko`nligiga marg`ub

Ushbu baytda Navoiy ani so`zini radif sifatida qo`llaydi va qisqa radif hisoblanadi. Navoiy “Hayrat ul-abror dostonida faqat qisqa radiflardan foydalangan. Radiflar har bir misra tarkibida qo`llanmagan. Radiflar ichida aylamak, erur, et, aylading, so`zlari doston ichida eng ko`p qo`llangan so`zlardir. Doston tarkibidagi radiflarning deyarli barchasi qisqa radif hisoblanadi. Doston ikkilik tarzda yozilgani uchun ko`pincha shoir qisqa radifni ma`qul ko`rgan bo`lishi ham mumkin. Ba`zi bir o`rinlarda radif bilan o`xshash bo`lgan hojibdan ham foydalanilgan. Hojib baytlarga jozibadorlik va fikr qaratilgan mazmunni aniqlab kelishda katta yordam beradi deb hisoblasak noto`g`rib bo`lmaydi. Doston ichidagi yigirma maqolatning mazmunini anglatish uchun har bir bob uchun alohida-alohida hikoyatlar ilova qilinadi. Radiflar esa deyarli har bir bobda bir xil so`zlardan foydalanilgandir. Bu dostonda hojibdan foydalanish holatlari juda kam deyarli uchramaydi ham, chunki asosiy e`tabor misraning mazmuni bilan bog`liq hisoblanadi. Dostonda Navoiyning didaktik ya`ni pand nasihat borasidagi qarashlarini ko`rishimiz mumkin. Bunday yo`nalishda ijod qilish bir muncha qiyinchlik ham tug`dirgan desak, mubolag`a bo`lmaydi. Davr mazmuni va unga aloqador bo`lgan voqealarni asl mohiyatini tushungan insongina va u bir qancha voqealarni boshdan kechirsagina ana shunday pand-nasihat qilishga qodir bo`ladi. Biz insonlar tushunibtushunmay biror hodisa yuzasidan qaror chiqarmasligimizni Navoiy besh asr oldin so`zlab ketgan. Navoiy davridagi vaziyatlar og`ir kechgan bo`lsa ham, bu qiyinchiliklarga bardosh bergen holda buyuklikka erishgan. Ana shunday ulug` Navoiy nomiga sazovor bo`lgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1.B.To`xliyev. Adabiyot (darslik) / Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. - T.: —O`qituvchil, 2010. - 288 b.

2. Adabiyot (Majmua): Akademik litseylarning birinchi bosqich o`quvchilari uchun / Tuzuvchilar: B.To`xliyev, B.Abdurahmonova. O`zR Oliy va O`rta maxsus ta`lim 463 vazirligi, O`rta maxsus kasb-hunar ta`lim markazi. - T.: Cho`lpon nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2010 - 216 b.

3.O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri) / D.Yusupova. - Toshkent: Akademnashr, 2013. - 272 b.

4.Adabiyot (Majmua): Akademik litseylar o`quvchilari uchun o`quv qo`llanma / R.M.Yusupaliyev; O`zR Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`rta maxsus kasb-hunar ta`lim markazi. - T.: Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010 - 688 b.

5. Adabiyot qoidalari: Akademik litseylar uchun o`quv qo`llanma / B.Umurov; O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`rta maxsus, kasb-hunar ta`lim markazi. - Qayta ishlangan va to`ldirilgan nashri. - T.: —O`qituvchil NMIU, 2010. - 240 b.